| Abdurahimov Abror Zafarovich, L.M. Tashpulatova                                                                                                            |     |
| ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ<br>ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....                                                    | 621 |
| Камалова Малика Низамовна, Очилов Акрам Одилович                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI IFODALOVCHI<br>ASOSIY OMILLAR .....                                                  | 626 |
| Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li                                                                                                                           |     |
| GLOBAL XAVFLARNING KESKINLASHUVI SHAROITIDA QAYTA SUG'URTANI RIVOJLANTIRISH<br>ISTIQBOLLARI.....                                                           | 631 |
| Norov Zarif Shamsiddinovich                                                                                                                                |     |
| INNOVATSION SUG'URTA XIZMATLARINI JORIY ETISH ORQALI IXTIYORIY SUG'URTA<br>XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                             | 638 |
| Xayitov Nodirjon Uzokovich                                                                                                                                 |     |
| VOSITACHILIK XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLAR AUDITI SIFAT NAZORATI.....                                                                               | 652 |
| O.Q. Qo'shmatov                                                                                                                                            |     |
| AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIK MODELLARDAN FOYDALANISH<br>MASALALARI .....                                                               | 657 |
| I.Qo'ziyev, F.Ochilov                                                                                                                                      |     |
| MAJBURIYATLAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI.....                                                                                                             | 664 |
| Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li                                                                                                                        |     |
| ВОПРОСЫ РЕОРГАНИЗАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СЕЛЬКОМ ХОЗЯЙСТВЕ .....                                                                                       | 669 |
| Розиков Жалил Жалолович                                                                                                                                    |     |
| TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI O'TKAZISH TARTIBI.....                                                                                                     | 678 |
| M.Xayitboyev                                                                                                                                               |     |
| USTAV KAPITAL HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                                                             | 683 |
| Inomjon Sherimbetov                                                                                                                                        |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA KOOPERATIVLARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI .....                                                                                     | 688 |
| Mirzayev Musurmon Umidullayevich, Ziyadullayev Ilhom Narkobilovich                                                                                         |     |



|                                                                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| EKSPORT BOZORLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLARNING ROLI .....                                                                               | 694 |
| Galiyev Tohir Fazliddinovich                                                                                                                                    |     |
| ZAMONAVIY LOGISTIKA TIZIMIDA MARKETING STARTEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                   | 700 |
| Abduqodirova Umida G'ayrat qizi                                                                                                                                 |     |
| QASHQADARYO URBANIZATSIYALASHGAN HUDUDLARIDA AGLOMERATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR .....                                                      | 706 |
| Nazarova Feruza Usmonovna                                                                                                                                       |     |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA KORXONALARINI KREDITLASHNING ZARURLIGI HAMDA IQTISODIY AHAMIYATI.....                                                          | 713 |
| Shaymatov Mansur Jo'rabaevich                                                                                                                                   |     |
| MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI TAN OLISH .....                                                                         | 720 |
| Odiljonova Oybarchin Fayzullo qizi                                                                                                                              |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TRANSFORMATSIYA BARQARORLIGINI BAHOLASH .....                                                                                   | 724 |
| Sanetullaev Aybek Esbosinovich                                                                                                                                  |     |
| XALQARO AVTOMOBIL ISHLAB CHIQUVCHI KOMPANIYALARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....                                                                              | 728 |
| Xidoyatov Mirsaid Mirmuhsunovich                                                                                                                                |     |
| ENSURING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: STRATEGIES FOR RESILIENCE IN AN ERA OF DECLINING RESOURCES AND RISING EXPECTATIONS..... | 734 |
| Inomiddin Imomov                                                                                                                                                |     |
| "YASHIL" TEXNOLOGIYALARNI IQTISODIY RIVOJLANISHGA INTEGRATSIYA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI.....                                                                 | 744 |
| Miraxmedova Maftuna Ibragimovna                                                                                                                                 |     |
| ИНТЕГРАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....                                                                                                    | 751 |
| Алиева Эльнара Аметовна                                                                                                                                         |     |
| AHOLI DAROMADLARI VA ULARNING SHAKLLANISH MANBALARI.....                                                                                                        | 756 |
| So'fiyeva Xusniya Soxibjonovna                                                                                                                                  |     |
| НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ И РАЗВИТИЮ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                                           | 760 |
| Назарова Гулчебра Нурмуханбетовна                                                                                                                               |     |
| СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ ПО ОЦЕНКЕ ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ .....                                                 | 766 |
| А.Р. Кудратов                                                                                                                                                   |     |
| IJTIMOIIY XIZMATLAR KO'RSATISH JARAYONIDA TASHKILIIY VA IQTISODIY MUNOSABATLAR .....                                                                            | 775 |
| Berdiyeva Nafisa Qahramonovna                                                                                                                                   |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION BIZNESNI BOSHQARISH VA YANGI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH .....                                                | 780 |
| Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li                                                                                                  |     |
| GRUZIYA TAJRIBASIDA BARQAROR TURIZMNI TA'MINLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLANILISHI.....                    | 786 |
| Suyunova Dilnoza Mexridin qizi                                                                                                                                  |     |
| INNOVATSION FAOLIYATNING MINTAQADA XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI XUSUSIYATLARI.....                                                                 | 790 |
| Fayziyeva Shirin Shodmonovna                                                                                                                                    |     |
| QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDA ETNOGRAFIK TURIZM KLASSTERINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI .....                                                             | 795 |
| Kunnazarova Orazxan                                                                                                                                             |     |
| MAMALAKATIMIZ IMPORTI VA EKSPORTIDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI .....                                                                                              | 798 |
| Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich                                                                                                                                |     |
| YEVROOBLIGATSIYA VA UNING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN EMISSIIYASI .....                                                                                  | 807 |
| Avezov Ibrohim Ilxomovich                                                                                                                                       |     |



|                                                                                                                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....                                                                | 808 |
| Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi                                                                                                                                                                         |     |
| SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELINING ZARURATI.....                                                                                                                    | 813 |
| Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich                                                                                                                                                                               |     |
| GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....                                                                                                             | 819 |
| Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal                                                                                                                                                                     |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                                                                                  | 825 |
| Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi                                                                                                                                                                              |     |
| BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPIRIK TAHLILI .....                                                                                                                           | 831 |
| Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li                                                                                                                                                  |     |
| YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....                                                                                                                            | 840 |
| Raxmonova Nigina Anvarovna                                                                                                                                                                                     |     |
| IJTIMOİY SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....                                                               | 844 |
| Bafojev Farrux Jo'raqulovich                                                                                                                                                                                   |     |
| AHOLI IJTIMOİY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI .....                                                                                                                                                        | 852 |
| Ulashev Xubbim Askarovich                                                                                                                                                                                      |     |
| YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA .....                                                                                                                                                 | 856 |
| Raxshona Nabibullayeva                                                                                                                                                                                         |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....                                                                                                         | 861 |
| Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li                                                                                                                                                                             |     |
| TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....                                                                                                                                  | 865 |
| Toshev Akmal Salimovich                                                                                                                                                                                        |     |
| TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .....                                                                                                                 | 874 |
| Quldasheva Maftuna Musurmon qizi                                                                                                                                                                               |     |
| ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....                                                                                                                                           | 878 |
| Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли                                                                                                                                                 |     |
| МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ..... | 884 |
| Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна                                                                                                                                                                               |     |
| DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....                                                                                                          | 893 |
| Maftuna Ermatova Arslonbek qizi                                                                                                                                                                                |     |
| O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI .....                                                                                                                                          | 899 |
| Voxidova Mehri Xasanovna                                                                                                                                                                                       |     |
| GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI .....                                                                                                                                 | 905 |
| Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li                                                                                                                                                                                  |     |
| IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....                                                                                                                   | 912 |
| Jumanazar Xolmuminov                                                                                                                                                                                           |     |
| YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI .....                                                                                                                                                  | 916 |
| Kalandarova Elnura Muzaffar qizi                                                                                                                                                                               |     |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSİYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                                                         | 921 |
| Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich                                                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND<br>ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....                                               | 926 |
| Yakubov Jakhongir                                                                                                                                      |     |
| УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА<br>В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                                                     | 929 |
| Каримова Нуржохон Олим кизи                                                                                                                            |     |
| ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ<br>ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ<br>МОДЕЛИ ..... | 935 |
| Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич                                                                                                     |     |
| "BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT<br>YONDASHUVLARI" .....                                                              | 941 |
| Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li                                                                               |     |
| IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI .....                                                                                              | 947 |
| Raximov Baxromjon Ibroximovich                                                                                                                         |     |
| O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....                                                                        | 951 |
| Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich                                                                                                                       |     |
| STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING<br>HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI .....                     | 955 |
| Hamroyeva Zuhra Amiral qizi                                                                                                                            |     |
| АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ<br>В АЗЕРБАЙДЖАНЕ .....                                                         | 961 |
| Ариф Мустафаев                                                                                                                                         |     |
| ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ<br>РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....                                                      | 968 |
| Ишонкулова Феруза Асатовна                                                                                                                             |     |
| O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING<br>NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                            | 974 |
| Gavhar Bekmurodova Adham qizi                                                                                                                          |     |
| XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI<br>VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....           | 981 |
| Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna                                                                                              |     |
| JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....                                                                          | 987 |
| Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi                                                                                                                      |     |
| MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON<br>TAJRIBALARI.....                                                          | 994 |
| Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li                                                                                                                    |     |



# MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI

## Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali

Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri

Iqtisod fanlari bo'yicha PhD, dotsent

E-mail: [msamadkulov@gmail.com](mailto:msamadkulov@gmail.com)

ORCID: 0009-0007-2801-6417

**Annotatsiya.** Maqolada milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy asoslari va rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, AQSH, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Yevropa davlatlarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, global innovatsion ko'rsatkichlari hamda innovatsiyalarni rag'batlantirish strategiyalari o'rganilgan. Jahon tajribasi asosida O'zbekistonda innovatsion salohiyatni kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab beriladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion salohiyat, R&D (Ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari), milliy innovatsion tizim, innovatsion siyosat, global innovatsion indeks, raqobatbardoshlik.

**Abstract.** The article analyzes the theoretical foundations of the effective use of the national economy's innovation potential and examines the experience of developed countries. It reviews the mechanisms for supporting research and development activities in the USA, Japan, the Republic of Korea, and European countries, as well as global innovation indicators and strategies for promoting innovation. Based on international experience, the paper identifies priority directions for expanding innovation potential in Uzbekistan.

**Key words:** innovation potential, R&D (Research and Development), national innovation system, innovation policy, global innovation index, competitiveness.

**Аннотация.** В статье анализируются теоретические основы эффективного использования инновационного потенциала национальной экономики, а также изучается опыт развитых стран. Рассмотрены механизмы поддержки научно-исследовательской деятельности в США, Японии, Республике Корея и странах Европы, глобальные инновационные показатели и стратегии стимулирования инноваций. На основе зарубежного опыта определяются приоритетные направления расширения инновационного потенциала в Узбекистане.

**Ключевые слова:** инновационный потенциал, R&D (научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы), национальная инновационная система, инновационная политика, глобальный инновационный индекс, конкурентоспособность.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida innovatsion salohiyat milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi eng asosiy strategik omil sifatida maydonga chiqmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning 60-70 foizi ilmiy-texnik taraqqiyot, yuqori texnologiyalarni joriy etish va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liq. Global Innovation Index natijalariga ko'ra, Shveysariya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya va Koreya Respublikasi innovatsion ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilar qatorida turadi. Ushbu



mamlakatlarda innovatsion siyosat davlat boshqaruvi, ilmiy tadqiqot muassasalari, universitetlar va xususiy sektor hamkorligiga tayangan. R&D xarajatlari YalMga nisbatan 2,8-4 foizga yetishi innovatsion jarayonlarning jadallashuvini ta'minlamoqda.

Mazkur maqolaning dolzarbligi O'zbekistonning milliy iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish bosqichiga olib chiqish zaruriyati bilan izohlanadi. Innovatsion siyosatning jahon tajribasiga asoslangan modeli milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yagona innovatsion ekotizim yaratishning fundamental omilidir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu bo'yicha o'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanishning nazariy poydevori J. Schumpeterning "Innovatsion sikl nazariyasi" ga borib taqaladi. Keyingi tadqiqotchilar – P. Drucker, M. Porter, R. Solou – "Innovatsion omillarning iqtisodiy o'sishga ta'siri" nomli ilmiy asarlarida chuqur ilmiy asoslab berdi [8, 9].

So'nggi yillarda OECD, WIPO, WEFForum, Global Innovation Index tadqiqotlari mamlakatlarning innovatsion salohiyatini baholashning asosiy xalqaro mezonlariga aylandi. Yuqori texnologiyalar bozoridagi raqobat, R&D xarajatlari, patentlar faolligi va texnologiyalar transferi jarayonlari bo'yicha eng yirik tadqiqotlar aynan ushbu tashkilotlar tomonidan chop etiladi [2, 3, 6].

Tadqiqotchi M.N. Kurbanova tomonidan 2018-yilda "Innovatsion rivojlanishning global tendensiyalari" nomli tadqiqot ishida, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va rivojlangan mamlakatlarning R&D ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Ushbu ma'lumotlar milliy innovatsion tizimni baholash hamda O'zbekiston uchun samarali model tanlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi [1].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning obyekti sifatida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy subyektlar, ya'ni innovatsion korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va texnoparklarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar tanlab olindi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida innovatsion salohiyatning mazmuni va tarkibiy tuzilmasini aniqlashda taqqoslama tahlil, iqtisodiy-statistik guruhlash, mantiqiy va abstrakt fikrlash, monografik kuzatish, shuningdek, innovatsion ko'rsatkichlar dinamikasini baholash uchun tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini baholash jarayonida jahon mamlakatlari tajribasi, ularning innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari, R&D xarajatlari hajmi, patent faolligi va texnologik modernizatsiya darajasi bo'yicha qiyosiy tahlillar amalga oshiriladi.

Tahlillar mamlakatlarning global innovatsion indekslarda egallagan o'rni, iqtisodiy raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari hamda innovatsion subindeksdagi o'zgarishlarga tayangan holda olib borildi. Ushbu ma'lumotlar xalqaro mezonlar asosida shakllantirilib, innovatsion siyosatning samaradorligi va milliy iqtisodiyotning texnologik imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jahon mamlakatlarining innovatsion rivojlanishidagi farqlar, avvalo, davlatlarning ilmiy-texnik salohiyati, R&D xarajatlari, innovatsion infratuzilma sifatidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Global innovatsion indekslar asosida o'tkazilgan qiyosiy baholash rivojlangan davlatlar innovatsion siyosatining izchil va samarali ekanini tasdiqlaydi. Shveysariya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH va Yaponiya kabi mamlakatlarning reytingda yuqori o'rinlarni egallashi ularning ilmiy-texnik resurslaridan oqilona foydalanishi, ta'lim va fan integratsiyasini kuchli tashkil etgani hamda R&D jarayonlarini strategik qo'llab-quvvatlagani bilan belgilanadi.

1-jadval. Global innovatsion indeks bo'yicha jahon rivojlanish reytingi

| Davlat              | GII (o'rin) | GII qiymati | GCI (raqobatbardoshlik) | Bloomberg indeksi |
|---------------------|-------------|-------------|-------------------------|-------------------|
| Shveysariya         | 1           | 68.4        | 1                       | 5-o'rin           |
| Shvetsiya           | 3           | 63.08       | 7                       | 2-o'rin           |
| Buyuk Britaniya     | 4           | 60.13       | 8                       | 17-o'rin          |
| AQSH                | 6           | 59.81       | 2                       | 11-o'rin          |
| Yaponiya            | 13          | 54.95       | 9                       | 6-o'rin           |
| Koreya Respublikasi | 12          | 56.63       | 26                      | 1-o'rin           |

(Manba: Global Innovatsion Indeksi va Global Raqobatbardoshlik Indeksi xalqaro reytingdan olingan.)



1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Shveysariya 68,4 ball bilan eng yuqori natijani qayd etib, dunyodagi eng innovatsion iqtisodiyot sifatida mustahkam pozitsiyani egallagan. Bunga uning fundamental tadqiqotlarga e'tibor berishi, universitet-sanoat kooperatsiyasining kuchli yo'lga qo'yilgani va texnologiyalarni tez tijoratlashtirish imkoniyati asos bo'ladi.

Shvetsiya va Buyuk Britaniyaning ilk beshlikka kirishi ham ularning ilmiy-tadqiqot salohiyati va kuchli ta'lim tizimi bilan bog'liq. Shvetsiyada innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning klaster modeli samarali bo'lib, ilmiy markazlar faoliyati barqaror qo'llab-quvvatlanadi.

AQSHning GII bo'yicha 6-o'rinni egallashi uning yirik iqtisodiyot bo'lishiga qaramay, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishdagi yuqori sur'ati bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bloomberg indeksida esa AQSHning yuqori o'rinda turishi R&D, startap ekotizimi va texnologik infratuzilmaning kuchli rivojlanganligi bilan bog'liq.

Yaponiya va Koreya Respublikasining reytingdagi o'rni ularning ilmiy-texnik salohiyati yuqori va sanoat sohalarida texnologik yetakchilikni saqlab kelayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Koreya Respublikasi Bloomberg indeksida birinchi o'rinni egallaganini uning AKT, avtomatlashtirish, robototexnika va innovatsion ishlab chiqarish bo'yicha dunyoning eng ilg'or davlatlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

2-jadval. 2006-2024-yillarda ayrim yetakchi davlatlarning innovatsion subindeksdagi o'rni

| №  | Mamlakat            | 2006-2007<br>(o'rin) | 2009-2010<br>(o'rin) | 2013-2014<br>(o'rin) | 2017-2018<br>(o'rin) | 2019-<br>2024<br>(o'rin) | 2024-y.<br>Innovatsion<br>subindeks<br>(ball) |
|----|---------------------|----------------------|----------------------|----------------------|----------------------|--------------------------|-----------------------------------------------|
| 1  | Shveysariya         | 2                    | 3                    | 1                    | 1                    | 1                        | 5.91                                          |
| 2  | Shvesiya            | 5                    | 4                    | 5                    | 5                    | 3                        | 5.63                                          |
| 3  | Buyuk Britaniya     | 10                   | 14                   | 10                   | 9                    | 8                        | 5.41                                          |
| 4  | AQSh                | 4                    | 1                    | 2                    | 2                    | 2                        | 5.82                                          |
| 5  | Isroil              | 8                    | 17                   | 8                    | 7                    | 6                        | 5.56                                          |
| 6  | Yaponiya            | 1                    | 2                    | 3                    | 6                    | 7                        | 5.48                                          |
| 7  | Singapur            | 15                   | 10                   | 10                   | 12                   | 4                        | 5.70                                          |
| 8  | Xitoy               | 57                   | 29                   | 29                   | 29                   | 22                       | 4.72                                          |
| 9  | Hindiston           | 26                   | 28                   | 41                   | 30                   | 36                       | 4.39                                          |
| 10 | Koreya Respublikasi | 20                   | 16                   | 20                   | 23                   | 5                        | 5.66                                          |
| 11 | Rossiya             | 71                   | 73                   | 99                   | 57                   | 52                       | 3.98                                          |
| 12 | Qozog'iston         | 74                   | 78                   | 87                   | 95                   | 89                       | 3.32                                          |

Manba: Xalqaro innovatsion reytinglar asosida muallif ishlanmasi.

2024-yilgi yangilangan subindeks natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanishda yetakchilikni saqlayotgan davlatlar barqaror iqtisodiy infratuzilma, yuqori ilmiy salohiyat va R&D investitsiyalariga ega. Reytingda yuqori turgan mamlakatlar orasida inson kapitaliga sarmoya, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xususiy sektor integratsiyasi va startap ekotizimini rivojlantirish holati aniq ustunlik sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Koreya Respublikasida innovatsion subindeksning 2018-2024-yillarda keskin oshishi mamlakatning yuqori texnologiyalar ishlab chiqarishda global markazga aylanganining tasdig'idir.

Shu bilan birga, 2024-yilgi ko'rsatkichlar global raqobatning AI, biotexnologiya, yarimo'tkazgichlar, kiberxavfsizlik va kosmik texnologiyalar yo'nalishlarida kuchayganini ko'rsatadi. Bu tendensiyalar innovatsion salohiyatning endilikda nafaqat ilmiy kashfiyotlarga, balki raqamli iqtisodiyotning murakkab ekotizimiga bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydigan eng muhim strategik omildir. Rivojlangan davlatlar tajribasi – xususan, Shveysariya, AQSH, Koreya Respublikasi va Shvetsiyaning 2024-yilgi innovatsion subindeks natijalari – innovatsion siyosatning muvaffaqiyati ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, R&D xarajatlari hajmi, inson kapitali sifati, raqamli infratuzilma darajasi va universitet-sanoat integratsiyasi bilan belgilanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Xitoy va Hindistonning innovatsion reytingdagi o'sishi global innovatsion raqobatning yangi markazlari shakllanayotganini tasdiqlaydi. Bu esa O'zbekiston uchun imkoniyatlar va chaqiriqlarni bir vaqtda



yuzaga chiqaradi. Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini kuchaytirish uchun mavjud resurslarni samarali boshqarish, ilmiy salohiyatni modernizatsiya qilish va texnologiyalarni tijoratlashtirish jarayonini jadallashtirish talab etiladi.

O'zbekiston sharoiti uchun eng maqbul innovatsion model – davlatning strategik boshqaruvi va xususiy sektorning faol innovatsion tashabbuslari uyg'unlashgan aralash innovatsion model (Koreya tajribasi) bo'lib, u milliy iqtisodiyotning texnologik yangilanishini tezlashtirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion siyosatning tizimli amalga oshirilishi, R&D infratuzilmasini rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish respublikaning global innovatsion maydondagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Amaliy takliflar: Quyida O'zbekistonning innovatsion salohiyatini kengaytirish va milliy innovatsion tizimni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar shakllantirildi:

1. Milliy innovatsion infratuzilmani mustahkamlash
  - Texnoparklar, ilmiy markazlar, startup-inkubatorlar va innovatsion klasterlar tarmog'ini kengaytirish.
  - Hududlarda innovatsion markazlar ochib, mahalliy innovatsion faollikni rivojlantirish.
2. Universitet-sanoat integratsiyasini kuchaytirish
  - Universitetlar huzurida texnologiyalar transferi markazlari va sanoat laboratoriyalari tashkil etish.
  - Talabalar, ilmiy izlanuvchilar va ishlab chiqarish korxonalari uchun qo'shma tadqiqot dasturlarini yo'lga qo'yish.
3. Innovatsion kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish
  - STEM yo'nalishlarida xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarini joriy etish.
  - Doktorantura va yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus fondlar yaratish.
4. Intellektual mulk bozorini rivojlantirish
  - Patent olish jarayonini soddalashtirish va tezlashtirish.
  - Patentlangan ishlanmalarni tijoratlashtirishni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari joriy etish.
  - Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun texnologiyalar transferiga oid subsidiyalar berish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kurbanova M.N. Jahon mamlakatlarining innovatsion rivojlanish tendensiyalari // Iqtisod va moliya. 2018. №11. B. 40-48.
2. Global Innovation Index 2024 Report. World Intellectual Property Organization (WIPO), Cornell University, INSEAD. Geneva, 2024. 450 p.
3. World Economic Forum. Global Competitiveness Report 2023-2024. Geneva: WEF Publications, 2023. 378 p.
4. OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2023. Organisation for Economic Co-operation and Development. Paris: OECD Publishing, 2023. 290 p.
5. UNCTAD. Handbook of Statistics 2022. New York-Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2022. 210 p.
6. WIPO. Patent Cooperation Treaty (PCT) Yearly Review 2024: The International Patent System. Geneva: World Intellectual Property Organization, 2024. 85 p.
7. Science & Engineering Indicators 2024. National Science Board, National Science Foundation. Washington D.C., 2024. 520 p.
8. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990. 896 p.
9. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. London: Heinemann, 1985. 277 p.
10. OECD Main Science and Technology Indicators 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. 140 p.
11. Bradley S., Hayter C., Link A. Models and Methods of University Technology Transfer // Working Paper Series, Department of Economics. 2013. 32 p.
12. Davydov A. Strukturnye izmeneniya v amerikanskoy ekonomike // Mirovaya ekonomika i mezhdunarodnye otnosheniya. 2009. №11. S. 40-41.
13. Alikulov I., Davronov Z. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy tajribasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2015. №3. B. 15-21.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>